

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNIKA VA NUTQ TEXNIKASINING AHAMIYATI

Mamasoliyev Rustamjon

o'qituvchi,

Farg'ona davlat universiteti,

O'zbekiston, Farg'ona shahar

Annotatsiya: *Mamlakatimizda ta'lim jarayonida yuz berayotgan tub o'zgarishlar har bir ta'lim muassasasida ta'lim sohasini jadallashtirishni talab etadi. Yangilikni joriy etish yo'li esa har doim murakkab va uzoq. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, pedagogik texnologiya yaqin yillar ichida ta'limda yangilik kiritishning asosiy manbai bo'lib qoladi.*

Maqolada ta'lim jarayonida pedagogik texnika va nutq texnikasining muhim jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, innovatsiya, ta'lim mazmuni, texnologiya, nutq madaniyati, pedagogik mahorat, barkamol avlod.*

Аннотация: *кардинальные изменения, происходящие в образовательном процессе в нашей стране, требуют активизации образовательной сферы в каждом учебном заведении. А путь внедрения инноваций всегда сложный и долгий. Можно с уверенностью сказать, что педагогические технологии станут основным источником инноваций в образовании в ближайшие годы.*

В статье исследуются важные аспекты педагогических приемов и приемов речи в образовательном процессе.

Ключевые слова: *образование, инновации, содержание образования, технология, культура речи, педагогическое мастерство, гармоничное поколение.*

Annotation: *fundamental changes in the educational process in our country require the acceleration of the educational sphere in each educational institution. And the path to introducing the novelty is always complex and long. It can be safely said that pedagogical technology will become the main source of innovation in education in the coming years.*

The article explores important aspects of pedagogical techniques and speech techniques in the educational process.

Keywords: *education, innovation, educational content, technology, speech culture, pedagogical skill, harmonious generation.*

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati. uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qoyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, qayta ishlash va amaliyotga samarali tadbiiq qilishni taqozo etadi.

Hozirgi davr o'qituvchi va talaba oldiga katta talablar qo'ymoqda. Bu talablarning eng asosiysi darsning samaradorligi, uning sifatligiga erishishdir. Hozirgi "Raqamli asr" deb atalmish davrda yurtimiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustivor vazifalardan biridir. Bu esa yuqori malakali mutaxassislar zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, pedagogning pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallashi muhim ahamiyatga ega. Zero, boshlang'ich ta'lim pedagog-o'qituvchilarida nutq asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, nutq vositasida pedagog bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadi, tarbiyalanuvchilar bilan ongli muloqotni ta'minlaydi, ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo'lajak pedagog avvalo nutq sirlarini, uning tarbiyalanuvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ta'sirkuchini puxta bilishi kerak.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining

ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu ro'zasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har qanday pedagog pedagogic mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir.

Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantiqining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va

yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Nutqning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo'lishidir. Nutqning asosiy xususiyatlari ushbu talablardan kelib chiqadi:

1. Nutqning to'g'riligi va ravonligi.
2. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi.
3. Nutqning mantiqiyliigi.
4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi.

Nutqning to'g'riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e'tibor beriladi: urg'u va grammatik normalarga amal qilinishi. Urg'u – so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

Grammatik norma – nutqning mazmundorligini, ma'noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig'indisidir. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi – mazmundor nutqning tinglovchiga ta'siretish omilidir. Pedagog so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq dalillar asosida tarbiyalanuvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Pedagog nutqining aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning pedagog tomonidan ifodalanayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda pedagog so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi. Nutqning mantiqiyliigi – nutqning mantiqiy bo'lishi eng avvalo pedagogning so'z boyligi, tafakkur ioritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq.

Pedagog tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr ioritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning pedagog ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanishi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligini bildiradi.

O'qituvchi nutqi-ning ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida pay-do bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi.

Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha ku-zatib turishi, o'z nutqining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilina-yot-ganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetar-li darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifoda-lamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi. O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qi-tuvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'z-lash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi. Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllan-tirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetka-zishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vosi-ta-lar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olay-lik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir marom-da bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zerik-tirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqe-alar haqida ga-pi-rish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq maz-mu-ni-ga mos hol-da keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Tarbiyalanuvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan pedagog nutqining mantiqiyiligiga putur etadi. O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar kiritmalar bilan ajratiladi. Demak, pedagog nutqining mantiqiyiligi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi – Pedagog nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. Pedagogning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan xoli bo'lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lumbir badiiy – estetik vazifani bajarsa-da, pedagogning dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak.

Pedagog doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarni no'rin ishlatishi o'z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada tarbiyalanuvchilar ta'lim– tarbiyasida pedagog tomonidan ishontirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlarni bayon etishga putur etadi. Nutqning tozaligi, uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishidir.

Odam tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. Hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish lozim.

XULOSA

Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish – o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchilarda his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir. Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Z.F.Sharopova. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent, 2019.
2. R.Mavlonova, O.Turayeva, K.Xolikberdiyev. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2001.
3. Каримова, Г. (2022). МАЪНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
4. Kozixodjaev, J. X. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI

MUAMMOLAR. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(18), 19-23.

5. Каримова, С., & Каримова, Г. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ОБЩЕСТВА, КАК МИРОВАЯ СИСТЕМА. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1372-1374).

6. Umatkulov, T. (2023). The Importance of the " Five Important Initiatives" in the Development of Society and the Formation of Civic Positioning Among Young People. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(3), 51-55.

7. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. Research Focus, 1(4), 267-272.

8. Salieva, N., & Saliev, U. (2021). Women In Medicine-Gender Aspects. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 292-295.

9. Pulatova, N., & Xasanov, N. (2020). THE ROLE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN MODERN EDUCATION. Мировая наука, (6 (39)), 60-62.

10. Pulatova, N. (2018). PROSPECTS DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM. Экономика и социум, (10 (53)), 65-67.

11. Egamberdieva, T. A., & Pulatova, N. R. (2020). METHODS OF USING AVESTO TEACHING IN THE FORMATION OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 271-277.

12. Pirmatovich, R. R., & Yusupovich, I. V. (2022). Comparative Functional Analysis of Synonyms in Theenglish. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(1), 116-118.

13. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. Research Focus, 1(4), 351-354.

14. Vaxobjon, I. (2022). BARKAMOL AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING MUHIM JIHATLARI. Research Focus, 1(4), 328-332.

15. Nuritdinova, S. X., & Ibragimov, V. Y. (2022). Problems of Grammatical Interference in Teaching German Language to Uzbek Students. International Journal of Formal Education, 1(10), 163-168.

16. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 60-65.

17. Rahberdi, R., & Yusupovich, I. V. (2022). Problems In Learning English In Different Classes In Secondary Schools. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).

18. Мамасолиев, Р. А. (2022, January). Немис Ва Ўзбек Тилларида “Муаллим” Концептини Ифодаловчи Воситалар Ҳақида Қисқача Тўхталиш. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1)*.

19. Adxamjonovich, M. R., & Ibroximovich, S. R. (2022). Lexico-Thematic and Linguoculturological Characteristics of the Concept Teacher. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 106-110.

20. Mamasoliyev, R. (2020). Modern Innovative Directions Of Pedagogical Education Development. *Теория и практика современной науки*, (6), 16-18.

21. Мамасолиев, Р. А. (2021). Communicative And Pragmatic Features Of The Teacher Concept In German And Uzbek Languages. *Международный Журнал Языка, Образования, Перевода*, 4(2).

22. Mamasoliev, R. A. (2022). Analysis Of Synonyms For The Concept Of Teacher In German And Uzbek. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 194-203.

23. Zakirova, D. S. (2022). TALABALARDA MILLATLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. *SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 439-448.

24. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

25. Abdulazizova, N. A., & Zakirova, D. S. (2016). VALUE OF DISTANCE LEARNING IN CONTINUING EDUCATION. *Ученый XXI века*, (12), 42-45.